

XX-XXI ASRLARDA TURKISTONDA TIBBIY XIZMAT KO'RSATISH MUNOSABATLARINING TARIXI

*Abdullayev Jamshid Djamilovich,
"Adliya a'lochisi", Yuridik fanlar
bo'yicha falsafa doktori (PhD)
E-mail: jamshidb003fb@gmail.com*

Annotatsiya. Maqolada XX-XX asrlarda Turkistonda tibbiy xizmat ko'rsatish munosabatlari tarixining o'ziga xos xususiyatlari tahlil qilingan. Shuningdek, ilmiy izlanishlarimiz jarayonida Turkistonda mavjud tabobat muassasalari genezisi, tabib (vrach)larning faoliyati hamda ularni kasbiy tayyorlash bosqichlari va boshqa masalalar soha bilan maxsus shug'ullangan olimlarning asarlari hamda O'zbekiston Respublikasi Markaziy Davlat arxivi ma'lumotlariga asosan yoritilgan.

Kalit so'zlar:. Turkiston dorilfununi, Qonunlar kodeksining XIII jildi, tibbiyot fakulteti, ingliz amerika oilasi, roman-german davlatlari, Turkiston general-gubernatorligi tibbiy xizmat ko'rsatish amaliyoti, Markaziy Osiyoda tibbiy xizmat ko'rsatish, tibbiy xizmat ko'rsatish genezisi, Toshkent shahar Dumasi, xalqaro tribunallar – Nyurnberg va Tokio sud jarayonlari, MDH mamlakatlari, transplantologiya, pravoslav cherkovi, vag'nze – diniy ibodatxona, yordamchi reproduktiv texnologiyalar.

Barcha davrlarda tabiblar ta'lim va maxsus tayyorgarlikdan o'tganidan keyin shu soha bilan shug'ullanishga kirishgan. O'rta asrlarda tabiblar asosan vaqf tasarrufidagi muassasalarda faoliyat ko'rsatishgan. Tibbiyot sohasida shartnomaviy huquqiy munosabatlarni paydo bo'lishi va rivojlanishi genezisi bevosita oliy tibbiy ta'lim bilan bevosita bog'liq ekanligi tamoyilidan kelib chiqib, quyidagi statistik raqamlarni kiririshni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz: "1919-yil 13-aprelda Turkiston davlat universiteti tarkibida tibbiyot fakultetini tashkil etish qarori qabul qilinib, 1919-yil 17-sentabrda Turkiston davlat universitetining birinchi ilmiy kengashida tibbiyot dekani etib professor P.P.Sitnovskiy saylangan. 1920-yilning 7-sentyabrida Turkistonda dorilfunun ta'lis etish haqidagi xujjat imzolangan. Dorilfunun tarkibiga tibbiy fakultet ham kiritilgan edi. 1921-yildan boshlab tibbiy fakultet shifokorlarni tayyorlay boshlagan. 1919-1921-yillarda fakultetning tashkiliy davri bo'lib, fakultetning moddiy bazasi yaratilgan"¹. Keyinchalik ushbu tibbiy fakultet negizida mamlakatimizda ayni paytda ham faoliyat ko'rsatayotgan hamda bugun kunga qadar yetakchi hisoblanadigan oliy tibbiyot muassasalari tashkil qilindi.

¹ <https://tma.uz/akademiya-haqida/qisqacha-tarix/>

Turkistonda tibbiy xizmat ko'rsatish genezisi bevosita XIX-XX asrlarda Rossiya imperiyasi bilan bog'liqligi tufayli tadqiqotchi Ye.Ye.Vasilyevaning haq evaziga tibbiy xizmat ko'rsatishga oid quyidagi fikrlarini keltirishni lozim deb topdik: "Rossiyada pullik tibbiy xizmatlar ko'rsatish sohasidagi munosabatlarni huquqiy tartibga solishni rivojlantirish bo'yicha inqilobdan oldingi xususiy tibbiyot amaliyoti va Rossiya imperiyasi tibbiyot xartiyasining (Qonunlar kodeksining XIII jildi) pullik tibbiy xizmatlar to'g'risidagi me'yorlari, Sovet qonunchiligining bir nechta qoidalari va fuqarolarning sog'lig'ini muhofaza qilish bo'yicha amaldagi qonunchilik normalari qabul qilindi"². Amalda yuqorida bayon qilingan davr xususiy tibbiyot amaliyoti va Rossiya imperiyasi tibbiyot xartiyasining, xususan Qonunlar kodeksining XIII jildi bilan shu davr tibbiy xizmat ko'rsatish ijtimoiy munosabatlari tartibga solingan. Markaziy Osiyoda tibbiy xizmat ko'rsatishga oid manbalarga asoslanib, mavjud imperiya ta'sirida bo'lgan davlatlar Buxoro amirligi, Xiva xonligi hamda Turkiston general-gubernatorligi tibbiy xizmat ko'rsatish amaliyotlarini tartibga solish uchun milliy normalar Toshkent shahar Dumasi tomonidan ishlab chiqilgan.

Chor Rossiyasi davrida O'rta Osiyoda tibbiy xizmat ko'rsatishni shartli ikki guruhga bo'lish maqsadga muvofiq:

Birinchi guruh – hududga tashrif buyurgan yevropalik tibbiyot xodimlari tomonidan tibbiy xizmat ko'rsatilgan bo'lsa;

Ikkinchi guruh – tibbiy xizmat ko'rsatish mahalliy tabiblar tomonidan ko'rsatilganligi bilan izohlanadi. Bu xususida XX asr o'zbek hikoyashunosligi yetakchi vakili A.Qahhor ijodida ham ishora berib o'tiladi: "Shaharda bitta doktorxona bor. Bu doktorxona to'g'risida Sotiboldining bilgani shu: salqin, tinch parkda, daraxtlar ichiga ko'milgan baland va chiroyli oq imorat; shisha qabzali kul rang eshigida qo'ng'iroq tugmasi bor. Chigit po'choq va kunjara bilan savdo qiladigan xo'jayini Abdug'aniboy omborda qulab ketgan qoplar ostida qolib o'ladigan bo'lganida bu doktorxonaga bormay Simga ketgan edi. Doktorxona deganda Sotiboldining ko'z oldiga izvosh va oq podshoning surati solingan 25 so'mlik pul kelar edi"³. Yuqorida hikoya matni parchasidan yaqqol ko'rinib turibdiki, aholining hamma qismi ham shu davrda malakali tibbiy xizmatdan "doktorxona" tibbiy xizmatidan narx ancha yuqori ekanligi sababli foydalana olmagan. Shu bilan birga shifoxona bilan parallel ravishda an'anviy tabiblar ham faoliyat ko'rsatishgan.

Tibbiy xizmat ko'rsatishning genezisi bilan bir paytda Turkistonda kechayotgan jarayonlar davrida Yevropa tibbiy xizmat ko'rsatish sohasi qanday rivojlanayotganligi,

² Е.Е.Васильева. Договор возмездного оказания медицинских услуг по законодательству Российской Федерации. 12.00.03 - Гражданское право; предпринимательское право; семейное право; международное частное право автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата юридических наук. Томск - 2004. С-10. <https://www.dissertat.com/content/dogovor-vozmezdno-go-okazaniya-meditsinskikh-uslug-po-zakonodatelstvu-rossiiskoi-federatsii>

³ <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-nasri/abdulla-qahhor-1907-1968/abdulla-qahhor-bemor-hikoya>

zamonaviy tibbiyot taraqqiyoti va boshqa masalalarni qiyosiy tahlil qilish maqsadga muvofiq. Tibbiy xizmat ko'rsatishning genezisi masalasida g'arb davlatlarida ham har xil konsepsiyalar vujudga kelgan. Shunday yo'nalishlardan biri: "Jakalin Daffin (1950-yilda tug'ilgan) tibbiyot tarixi "tibbiyotni o'rganish uchun kontseptual vosita"ni taklif qilib, o'z qarashlarini muhokama qildi⁴. Olimning mazkur tamoyilidan keyinchalik aholiga tibbiy xizmat ko'rsatish sohasini takomillashtirish maqsadida foydalanildi.

Tibbiy xizmat ko'rsatish jarayonida sohaga oid huquqbuzarlik bilan bog'liq javobgarlik masalasini tartibga solish muhim hisoblanadi. XX asrda insonning huquq va erkinliklarini ta'minlash masalasi xalqaro tashkilotlar, jumladan har bir davlatning milliy normalari bilan himoyalash mexanizmlari vujudga kela boshladi. O'z navbatida mazkur g'oyalar zamirida aholiga ko'rsatilayotgan tibbiy xizmatning sifati, ayrim holatlarda insoniy xarakterda emasligi, inson tanasi tajriba maydoni emasligi kabi huquqiy qarashlar kun tartibiga chiqdi. Shu davrda zamonaviy tibbiyot uchun tajriba o'tkazish obyekti masalasi juda dolzarb masalalardan biriga aylandi.

Bu kabi tibbiy xizmat ko'rsatish asosiy va bir paytning o'zida nizoli vaziyatlar tadqiqotchi V.S.Abdullinaning tadqiqotida yetarlicha asoslanib tahlil qilingan. Jumladan, "Tibbiy xizmatlar ko'rsatish uchun huquqiy javobgarlikni tartibga soluvchi qonun hujjatlarini ishlab chiqish bir necha bosqichlarga bo'linishi kerak. Bunda fashist shifokorlarining harbiy asirlar ustida o'tkazgan tajribalari haqida ma'lumot, tadqiqot maqsadida odamlarda giyohvand moddalarni tekshirish va boshqalarni alohida qayd etish lozim hisoblanadi. Asrning oxiriga kelib tibbiyotda huquqiy javobgarlikni huquqiy tartibga solish biotibbiyot fanining rivojlanishi bilan bog'liq holda o'zining yangi rivojlanish bosqichiga o'tdi"⁵. Keyinchalik aynan xalqaro tribunallar - Nyurnberg va Tokio sud jarayonlari davrida bu kabu xalqaro ahamiyat kasb etadigan tibbiy huquqbuzarliklar uchun alohida javobgarlik belgilangan. Xalqaro tashkilotlar tomonidan mazkur sud materiallari asosida bir qancha pakt, konvensiya va boshqa normativ hujjatlar qabul qilinib, ularning milliy norma ijodkorligida tibbiy xizmat ko'rsatishning lozim darajada ko'rsatilmaganligi uchun alohida sanksiyalar ishlab chiqildi. Fuqarolik huquqi tizimida ingliz amerika oilasiga kiruvchi mamlakatlar hamda Yevropa qit'asida joylashgan roman-german davlatlarida tibbiy xizmat ko'rsatish bilan munosabatlar mutlaqo shartnomaviy xususiyat kasb etgan bo'lsa, Sobiq Sovet davlati ta'siridagi davlatlarda tibbiy xizmat ko'rsatish ma'muriyatchilik, byurokratik usul bilan boshqarildi.

⁴ Duffin J. History of medicine: a scandalously short introduction. – University of Toronto Press, 2021.

⁵ В.С.Абдуллина. Гражданско-правовая ответственность за нарушения в сфере оказания медицинских услуг: некоторые вопросы теории и практики. 12.00.03 - Гражданское право; предпринимательское право; семейное право; международное частное право автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата юридических наук. Казань-2007. С-12. <https://www.dissercat.com/content/grazhdansko-pravovaya-otvetstvennost-zanarusheniya-v-sfere-okazaniya-meditsinskikh-uslug-ne>

XXI asr insoniyat uchun raqamli texnologiya, zamonaviy tibbiy vositalar va boshqa omillar tufayli tibbiy xizmat ko'rsatish ham tubdan o'zgardi. Shunday yangi ammo tajribalar orqali avvalroq qilingan tibbiy xizmat ko'rsatish sohasi transplantatsiya xizmatlari hisoblanadi. Bugungi kunda tibbiy xizmat ko'rsatish bilan bog'liq munosabatlarda transplantatsiya muhim o'rin egallaydi. Shu ma'noda E.M.Alsinbayeva tomonidan MDH mamlakatlari uchun transplantatsiya sohasining rivojlanishi shartli to'rt bosqichga bo'linadi. Birinchi bosqich xususida tadqiqotchi quyidagi ilmiy asoslangan mulohazalarini bayon etadi: "Transplantologiyasining birinchi bosqichining boshlanishi rossiyalik jarroh V.I.Pirogovning faoliyati bilan bog'liq. U 1835-yilda o'z tajribasi va transplantologiyaning kelajagi haqidagi fikrlarini umumlashtirgan. Transplantologiyani tartibga solish butun tibbiy qonunchilikning rivojlanishiga bog'liq edi. Uning aksi 1857 yilgi Tibbiyot Xartiyasining qoidalari bo'lib, o'limdan keyin yigirma to'rt soatgacha o'lik jasadni kesishni taqiqlangan. Bu esa a'zolar va to'qimalarni samarali to'plash va natijada transplantatsiyani amaliy qo'llash imkoniyatiga salbiy ta'sir ko'rsatdi"⁶. Demak, tibbiy xizmat ko'rsatishning muhim qismlaridan biri ayni paytda transplantatsiya sohasi ham rivojlanishing dastlabki bosqichlarida mavjud tuzum va davlat tomonidan inkor etilgan. Ammo ilmfan, raqamli texnologiyalarning rivojlanishi, mazkur sohaning taraqqiy etishi natijasida transplantatsiya tibbiy xizmati hozirgi rivojlangan norma ijodkorligi bilan tartibga solingan holatga keldi.

Tibbiy xizmat ko'rsatish genezisi masalasi bevosita tibbiyot xizmatini ko'rsatuvchi tashkilotlarning faoliyati bilan bog'liq. Shu maqsadda tadqiqotchi A.A.Ostaninining quyidagi fikrlarini keltirishni lozim deb hisoblaymiz: "Rossiyadagi birinchi tibbiyot muassasalarini Pravoslav cherkovi boshqargan va ular mustaqillik iqtisodiy faoliyat ko'rsatgan. Birinchi kasalxonalar ham cherkov muassasalari edi. Rossiya imperiyasi mavjud bo'lgan butun davrda tibbiy xizmat ko'rsatish va tibbiyot muassasalarining holatini tartibga soluvchi nizomlar nashr etilib, takomillashtirildi. XIX-asrning II-yarmida Rossiya imperiyasida fuqarolik muomalasiga maxsus kengashlar orqali kirgan zemstvo institutlari paydo bo'ldi. Shu davrda hunarmandlarni sug'urta tizimi rivojlana boshladi, uning asosini tibbiy sug'urta fondlari tashkil etdi. 1917-yil oktyabr oyidagi tarixiy voqealardan so'ng muassasa aholiga tibbiy yordam ko'rsatuvchi yuridik shaxsning eng ommabop shakliga aylandi. Sovet davlatida davolash va profilaktika muassasalari smeta hisobidan moliyalashtiriladigan qat'iy maxsus huquq layoqati ega yuridik shaxslar deb tan olindi. XX asrning 80-yillari

⁶ Э.М.Алсынбаева. Гражданско-правовое регулирование оказания медицинских услуг по трансплантации органов и тканей человека. 12.00.03 - Гражданское право; предпринимательское право; семейное право; международное частное право автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата юридических наук. Москва – 2013.С-13.

oxirida xususiylashtirish jarayoni boshlandi”⁷. Tadqiqotchi tadqiqotchi A.A.Ostanin MDH davlatlarining katta qismi uchun tibbiy xizmat ko‘rsatish bilan bog‘liq umumiy xususiyatlarni bayon etadi. Uning barcha fikrlariga qo‘shilgan holda Markaziy Osiyo uchun tibbiy xizmat ko‘rsatish Rossiya kabi pravoslav cherkovi homiyligida emas, aksincha aholining katta qismi e‘tiqod qiladigan din muassalari tasarrufida bo‘lganligini qayd etishimiz lozim. Ilk o‘rta asrlarda shifoxonalar – diniy muassasa hisoblangan vag‘nze – diniy ibodatxona qoshida tashkil qilingan bo‘lsa, keyinchalik shifoatxonalar asosan masjid va madrasa, honaqoh va boshqa shunday muassasalar qoshida tashkil etilgan. Moddiy ta‘minot ayrim o‘rinlarda vaqf hisobidan ham moliyalashtirilgan. Bu haqida O‘zbekiston Respublikasi Markaziy Davlat arxivi⁸ning tegishli fondlarida ko‘p sonli arxiv ma‘lumotlari mavjud.

Istiqlol yillarida tibbiyot sohasida bir qancha tub mazmuniy ahamiyatga ega islohatlar, o‘zgarishlar bilan birga norma ijodkorligida ham bir qancha qonun hujjatlari qabul qilindi. Jumladan, 1996-yil 29-avgustda O‘zbekiston Respublikasining “Fuqarolar sog‘lig‘ini saqlash to‘g‘risida”gi qonuni, eski tahrirda 1997-yil 25-aprelda O‘zbekiston Respublikasi “Dori vositalari va farmatsevtika faoliyati to‘g‘risida”⁹ qonuni hamda yangi tahrirda 2016-yil 4-yanvardagi O‘RQ-399-sonli “O‘zbekiston Respublikasining “Dori vositalari va farmatsevtika faoliyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonuniga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish haqida”¹⁰ qonuni, 2002-yil 30 avgustdagi 402-II-sonli O‘zbekiston Respublikasining “Qon va uning tarkibiy qismlari donorligi to‘g‘risida”¹¹gi qonuni, 2007-yil 3-mayda O‘zbekiston Respublikasining “Yod yetishmasligi kasalliklari profilaktikasi to‘g‘risida”¹²gi qonuni, 2013-yil 23-sentabrdagi O‘zbekiston Respublikasining “Odamning immunitet tanqisligi virusi keltirib chiqaradigan kasallik (OIV infeksiyasi) tarqalishiga qarshi kurashish to‘g‘risida”¹³gi qonuni, 2019-yil 12-martdagi “Fuqarolarning reproduktiv salomatligini saqlash to‘g‘risida”¹⁴gi qonuni, 2023-yil 4-oktabrda O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga sog‘liqni

⁷A.A.Ostanin. Гражданско-правовой статус лечебно-профилактических учреждений. 12.00.03 - Гражданское право; предпринимательское право; семейное право; международное частное право автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата юридических наук. Москва – 2012.С-15. <https://www.dissercat.com/content/grazhdansko-pravovoi-status-lechebno-profilakticheskikh-uchrezhdenii>

⁸ <https://archive.uz/ozbekiston-respublikasi-markaziy-davlat-arxivi>

⁹ O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1997-y., 4-5-son, 120-modda; O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2009-y., 38-son, 416-modda; 2014-y., 36-son, 452-modda

¹⁰ Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 22.07.2020-y., 03/20/629/1087-son; 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son; 12.10.2021-y., 03/21/721/0952-son; 22.11.2023-y., 03/23/879/0873-son; 15.02.2024-y., 03/24/908/0126-son

¹¹ O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2002-y., 9-son, 162-modda; Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son; 22.11.2023-y., 03/23/879/0873-son

¹² O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2007-y., 17-18-son, Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son; 04.11.2022-y., 03/22/800/0990-son; 21.01.2023-y., 03/23/815/0044-son

¹³ O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2013-y., 39-son, 507-modda; 2016-y., 52-son, 597-modda; Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 05.01.2018-y., 03/18/456/0512-son, 11.05.2019-y., 03/19/536/3114-son, 24.05.2019-y., 03/19/542/3177-son; 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son, 18.05.2022-y., 03/22/770/0424-son

¹⁴ Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 12.03.2019-y., 03/19/528/2741-son; Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son

saqlash organlari faoliyati haqida jamoatchilikning xabardorligini oshirishga qaratilgan o'zgartishlar va qo'shimcha kiritish to'g'risida"¹⁵gi qonuni, 2022-yil 12-mayda O'zbekiston Respublikasining "Inson a'zolari va to'qimalarining transplantatsiyasi to'g'risida"¹⁶gi qonuni va boshqa qonun hujjatlari qabul qilingan.

Bundan tashqari aholiga tibbiy xizmat ko'rsatish sohasida bir qancha qonunosti hujjatlar, xususan, 2017-yil 4-aprelda kuchga kirgan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Sog'liqni saqlash sohasida xususiy sektorni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"¹⁷gi qarori, 2019-yil 6-apreldagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Sog'liqni saqlash sohasida davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"¹⁸gi qarori, 2020-yil 6-fevralda ro'yxatdan o'tgan, ro'yxat raqami 3217 bo'lgan O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirining "Yordamchi reproduktiv texnologiyalardan foydalanish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida" buyrug'i va boshqa normativ hujjatlar qabul qilindi. Mamlakatda xususiy tadbirkorlar uchun keng imkoniyatlarning joriy qilinishidan tibbiy xizmat ko'rsatish sohasi chetda qolmadi. Ayni paytda aholiga ko'rsatilayotgan tibbiy xizmat ko'rsatishning katta qismi xususiy sektorda fuqarolar bilan erkin va o'zaro kelishuv asosida shartnomaviy tartibda amalga oshirilmoqda.

Bundan tashqari yuqorida qayd qilinganidek, an'anaviy tabobat sohasida ham aholining ehtiyoji katta ekanligini hamda mamlakatimizda mavjud tabiblar faoliyatini huquqiy tartibga solish, ularning kasbiy mahoratini oshirish maqsadida 2018-yil 12-oktabrda PQ-3968-son bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida xalq tabobati sohasini tartibga solish chora-tadbirlari to'g'risida"¹⁹gi qarori hamda 2020-yil 10-apreldagi PQ-4668-sonli O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida xalq tabobatini rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"²⁰gi qarori qabul qilingan. Ayni paytda tabiblar ham vakolatli organ tomonidan berilgan maxsus ruxsatnoma asosida fuqarolar bilan erkin kelishuv, haq evaziga shartnoma tuzish asosida, mamlakatimizda qabul qilingan sog'liqni saqlash sohasida amalda mavjud hujjatlarga asoslanib, aholining barcha qatlamlari bilan fuqarolik shartnomaviy munosabatga kirishib, tibbiy xizmat ko'rsatmoqda.

Tibbiy xizmat shartnomaviy huquqiy munosabatlarning genezisini ilmiy-nazariy tahlili natijasida quyidagi xulosalarga keldik:

¹⁵ Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 06.10.2023-y., 03/23/870/0753-son

¹⁶ Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 12.05.2022-y., 03/22/768/0404-son

¹⁷ O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017-y., 14-son, 217-modda; 08.10.2021-y., 06/21/6320/0940-son, 12.04.2022-y., 06/22/102/0291-son

¹⁸ Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 17.04.2019-y., 07/19/4290/2959-son; Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 08.10.2021-y., 06/21/6320/0940-son, 30.11.2021-y., 06/21/26/1111-son; 07.07.2023-y., 06/23/108/0460-son; 13.07.2023-y., 06/23/109/0469-son

¹⁹ Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 13.10.2018 y., 07/18/3968/2042-son

²⁰ Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 10.04.2020 y., 07/20/4668/0412-son; 04.07.2023 y., 06/23/107/0441-son

birinchidan, tibbiy xizmat ko'rsatishning rivojlanishi, genezisi masalasida boy xorijiy davlatlar tajribasi, Turkiston general-gubernatorligi va O'zbekiston SSRdagi tadrijiy rivojlanishning o'ziga xos xususiyatlari arxiv hujjalari va birinchi darajali manbalar asosida ilmiy-nazariy tahlil qilindi.

ikkinchidan, V.S.Abdullina, Nyurnberg va Tokio sud jarayonlari, E.M.Alsinbayeva, V.I.Pirogov, A.A.Ostaninlarning asarlari hamda O'zbekiston Respublikasi Markaziy Davlat arxivi materiallari asosida XX-XXI asrlarda Turkistonda tibbiy xizmat ko'rsatish munosabatlarining tarixi o'rganildi.

uchinchidan, O'zbekiston Respublikasida shu kunga qadar qabul qilingan sog'liqni saqlash bilan bog'liq barcha normativ huquqiy hujjatlar ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilindi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. <https://tma.uz/akademiya-haqida/qisqacha-tarix/>
2. Е.Е.Васильева. Договор возмездного оказания медицинских услуг по законодательству Российской Федерации. 12.00.03 - Гражданское право; предпринимательское право; семейное право; международное частное право автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата юридических наук. Томск - 2004. С-10.
<https://www.dissercat.com/content/dogovor-vozmezdno-go-okazaniya-meditsinskikh-uslug-po-zakonodatelstvu-rossiiskoi-federatsii>
3. <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-nasri/abdulla-qahhor-1907-1968/abdulla-qahhor-bemor-hikoya>
4. Duffin J. History of medicine: a scandalously short introduction. – University of Toronto Press, 2021.
5. В.С.Абдуллина. Гражданско-правовая ответственность за нарушения в сфере оказания медицинских услуг: некоторые вопросы теории и практики. 12.00.03 - Гражданское право; предпринимательское право; семейное право; международное частное право автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата юридических наук. Казань-2007. С-12.
<https://www.dissercat.com/content/grazhdansko-pravovaya-otvetstvennost-za-narusheniya-v-sfere-okazaniya-meditsinskikh-uslug-ne>
6. Э.М.Алсынбаева. Гражданско-правовое регулирование оказания медицинских услуг по трансплантации органов и тканей человека. 12.00.03 - Гражданское право; предпринимательское право; семейное право; международное частное право автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата юридических наук. Москва – 2013.С-13.
7. А.А.Останин. Гражданско-правовой статус лечебно-профилактических учреждений. 12.00.03 - Гражданское право; предпринимательское право; семейное право; международное частное право автореферат диссертации на

- соискание ученой степени кандидата юридических наук. Москва – 2012.С-15.
<https://www.dissercat.com/content/grazhdansko-pravovoi-status-lechebno-profilakticheskikh-uchrezhdenii>
8. <https://archive.uz/ozbekiston-respublikasi-markaziy-davlat-arxivi>
 9. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1997-y., 4-5-son, 120-modda; O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2009-y., 38-son, 416-modda; 2014-y., 36-son, 452-modda
 10. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 22.07.2020-y., 03/20/629/1087-son; 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son; 12.10.2021-y., 03/21/721/0952-son; 22.11.2023-y., 03/23/879/0873-son; 15.02.2024-y., 03/24/908/0126-son
 11. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2002-y., 9-son, 162-modda; Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son; 22.11.2023-y., 03/23/879/0873-son
 12. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2007-y., 17-18-son, Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son; 04.11.2022-y., 03/22/800/0990-son; 21.01.2023-y., 03/23/815/0044-son
 13. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2013-y., 39-son, 507-modda; 2016-y., 52-son, 597-modda; Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 05.01.2018-y., 03/18/456/0512-son, 11.05.2019-y., 03/19/536/3114-son, 24.05.2019-y., 03/19/542/3177-son; 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son, 18.05.2022-y., 03/22/770/0424-son
 14. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 12.03.2019-y., 03/19/528/2741-son; Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son
 15. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 06.10.2023-y., 03/23/870/0753-son
 16. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 12.05.2022-y., 03/22/768/0404-son
 17. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017-y., 14-son, 217-modda; 08.10.2021-y., 06/21/6320/0940-son, 12.04.2022-y., 06/22/102/0291-son
 18. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 17.04.2019-y., 07/19/4290/2959-son; Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 08.10.2021-y., 06/21/6320/0940-son, 30.11.2021-y., 06/21/26/1111-son; 07.07.2023-y., 06/23/108/0460-son; 13.07.2023-y., 06/23/109/0469-son
 19. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 13.10.2018 y., 07/18/3968/2042-son
 20. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 10.04.2020 y., 07/20/4668/0412-son; 04.07.2023 y., 06/23/107/0441-son